

ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



Volume 4, Issue 4 **2026**



ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000



«MAMUN SCIENCE» JURNALI

4 JILD, 4 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 4, HOMEP 4

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 4, ISSUE 4



TOHKENT-2026

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «МА'МUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№4 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2026-4>

Бош мухаррир: | Главный редактор:
Chief Editor:

Matyakubov Umidjon Raximovich
(i.f.d., prof.)

Бош мухаррир ўринбосари: | Заместитель
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

Xudonazarov Egambergan Madrahimovich
(PhD., dots.)

TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

FILOLOGIYA FANLARI

O'rozboyev Abdulla Durdibayevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Axmedov Oybek Saporboyevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Galiyeva Margarita Rafaelovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Samarqand davlat chet tillari instituti

Cho'ponov Otanazar Otojovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)

Urganch davlat universiteti

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

TARIX FANLARI

Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev

Tarix fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar

akademiyasining haqiqiy a'zosi

Ashirov Adhamjon Azimbayevich

Tarix fanlari doktori, professor,

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

Shaydurov Vladimir Nikolayevich

Tarix fanlari doktori, dotsent

Leningrad davlat universiteti Rossiya

Abdullayev Utkir Ismoilovich

Tarix fanlari doktori (DSc),

dotsent Urganch davlat universiteti

Matkarimova Sadoqat Maqsudovna

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Timur Pulatovich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdalov Umidbek Matniyazovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

PSIXOLOGIYA FANLARI

Shoumarov G'ayrat Baxromovich

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

Kryukova Tatyana Leonidovna

Psixologiya fanlari doktori, professor

Kostroma davlat universiteti Belorusiya

Karpinskiy Konstantin Viktorovich

Psixologiya fanlari doktori, professor

Grodno davlat universiteti Belorusiya

Urazbayeva Dilbar Abdullayevna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Jumaniyazova Nasiba Ramatillayevna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

IQTISODIYOT FANLARI

Ruzmetov Baxtiyar

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ma'mun Universiteti NTM

Sherov Alisher Bakberganovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Voronsova Yuliya Vladimirovna

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

Jabborov Umarbek Rustambekovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Cho'ponov San'at Otanazarovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Niyazmetov Islambek Masharipovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'g'li

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Adilov Zafar Yunusovich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Boltayev Abdurahim Amanovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Zoirov Erkin Xalilovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Buxoro davlat texnika universiteti

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

TIBBIYOT FANLARI

Yuldashev Baxrom Sobirjanevich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Ravshanbek Babajonovich

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Esamuratov Aybek Ibragimovich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Samandarova Barno Sultonovna

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Tajiyeva Zebo Baxodirovna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li

Ma'mun Universiteti NTM

Журнал включен в перечень ВАК национальных научных изданий, рекомендуемых для публикации основных научных результатов диссертаций по медицинским наукам постановлением № 01-08/3068/17 от 27 сентября 2024 г.

Page Maker | Верстка | Саифаловчи: X. Mirzaxmedov

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

IQTISOD

- 1. Odilbekova Xonimjon Jahongir qizi. Rudenko Inna Yurevna.**
 QATTIQ MAISHIY CHIQUINDILARNI QAYTA ISHLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH:
 XORIJIY TAJRIBA VA O‘ZBEKISTON UCHUN ISTIQBOLLAR.....8
- 2. S.M.Raximova. V. M. Baxtiyarova.**
 RAQAMLI TRANSFORMATSIYALASHUV JARAYONIDA TIBBIY XIZMATLAR
 KO‘RSATISHNI MOLIYALASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI.....13
- 3. S. Allayarov.**
 MINTAQA IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA STARTAP LOYIHALARDAN
 FOYDALANISHNING XORIJ TAJRIBASI.....16
- 4. Matyoqubov Arslonbek G'ayrat o'g'li.**
 EKSPORT INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING MINTAQA
 RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA’SIRI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA).....20
- 5. Matkarimov Feruz Bekturdiyevich.**
 MINTAQA TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARINING GLOBAL BOZORDA
 RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI.....27
- 6. Yulduz Yaqubova Raimovna.**
 OZIQ-OVQAT SANOATIDA TEXNIKA TARAQQIYOTI, INNOVATSION
 TRANSFORMATSIYA VA UNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....33
- 7. Masharipova Xosiyat Matrasulovna. Xalbayeva Maftuna.**
 XORAZM VILOYATI IQTISODIYOTIDA EKOLOGIK OMILLAR VA BARQAROR
 HUDUDIY RIVOJLANISH MASALALARI.....38
- 8. Sattarova Dilfuza Dilshodbekova.**
 O‘ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA HUQUQIY
 ASOSLARINING YARATILISHI.....43
- 9. Ismailova Gulruh Faxriddinovna.**
 INSON KAPITALIGA INVESTITSIYALAR VA HUDUDIY IQTISODIY NOMUTANOSIBLIK:
 MOLIYALASHTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI.....48
- 10. Jumaniyazova Sharifa Rashidovna.**
 TURISTIK MAHSULOTLAR BOZORIDA MARKETING STRATEGIYALARINI
 RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....54
- 11. Li Yang.**
 EDIGITAL SILK ROAD AND SUSTAINABLE TOURISM: ANALYZING THE ADAPTATION
 OF CHINESE DIGITAL PLATFORMS IN UZBEKISTAN.....58
- 12. Sharipova Asaloy. Rudenko Inna Yurevna.**
 THE EFFECTIVENESS OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN WATER RESOURCE
 MANAGEMENT.....64

13. Турдиева Якитжан Хайитбаевна.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ФИНАНСОВОЙ ПОДДЕРЖКИ СИСТЕМЫ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ ГОСУДАРСТВЕННО-ЧАСТНОГО ПАРТНЁРСТВА (НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН).....68

14. Djumaniyazov Farruxbek Abdulla o'g'li.

XORAZM VILOYATIDA IQLIM O'ZGARISHI VA INSTITUTIONAL OMILLARNING MINTAQAVIY BARQAROR EKOLOGIK-IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI.....72

TARIX

1. Дилафруз Ийманова Абдиманнобевна.

ЎЗБЕКИСТОНДА СОВЕТ ДАВРИДА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ КАДРЛАРИНИНГ ИЖТИМОИЙ, МОДДИЙ АҲВОЛИ: МУАММОЛАР ВА САБОҚЛАР (1925-1941 ЙИЛЛАР).....79

2. Ahmadjonova Inobat Baxodir qizi.

MOHENJO-DARO VA HARAPPA SIVILIZATSIYALARINING PAYDO BO'LISHI VA TARAQQIYOTI.....88

3. Otamuradova Roviyaon Olimboyevna. Joldasova Ozoda Ergash qizi.

MUSTAQILLIK YILLARIDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASH, VATANIMIZNING QADIMIY VA BOY TARIXINI O'RGANISH.....92

4. Saotboyev Rahmatjon Madamin o'g'li.

XORAZM VOHASIDA IBTIDOIY SAHNAVIY UNSURLAR VA MAROSIMIY TOMOSHALAR: IJTIMOYIY-MADANIY VA TARIXIY ASOSLAR.....95

5. Саидов Шавкат Жумабаевич.

XX АСРНИНГ ХАЛҚАРО МАЙДОНДА ТАН ОЛИНИШИДА БОБООХУН САЛИМОВНИНГ ЎРНИ.....100

6. Salayev Umrbek Kadambayevich.

QUYI AMUDARYO HUDUDIDA TOSH VA NEOLIT DAVRLARIDA IJTIMOYIY-IQTISODIY MUNOSABATLARNING SHAKLLANISHI.....106

7. Safarov Tolib Todjiyevich.

XIVA XONLIGIGA KO'CHIB KELGAN TURKMAN URUG'LARI HAQIDA AYRIM MA'LUMOTLAR.....111

8. Atadjanova Dilnoza Ganiyevna.

JANUBIY XORAZM HUDUDINING ARXEOLOGIK TADQIQOTLARDA O'RGANILISH TARIXI.....116

FILOLOGIYA

1. Xusainova Shaxnozabonu Ergashevna.

ABU RAYHON BERUNIYNING "OSOR UL-BOQIYA" ASARI VA UNING INGLIZ TILIGA TARJIMASIDA SHARQ RUHI HAMDA KONTEKSTUAL O'ZIGA XOSLIKNI SAQLASH..121

2. B.Q. Sapayeva.

O'ZBEK TILI GEMERONIMLARINING SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOTI.....125

- 3. Sobirova Gulasal Zokir qizi.**
THEORETICAL APPROACH TO LINGUISTIC-COGNITIVE APPROACHES IN MODERN LINGUISTICS.....129
- 4. Mokhinur Murodova Azamat qizi.**
ABBREVIATION AND INTERNET SLANG USAGE AMONG MDIST STUDENTS IN VIDEO GAMES AND ONLINE CHATS.....136
- 5. Yusupova Soxiba Islombek qizi.**
INGLIZ VA O‘ZBEK BOLALAR SHE’R VA QO‘SHIQLARIDA EMOTSIONAL BO‘YOQDOR SO‘ZLAR.....143
- 6. Sarodbekov Sherzodbek Saforboyevich.**
BADII ASAR USLUBINI QAYTA TIKLASHDA MUTARJIM MAS’ULIYATI (E. HEMINGWAYNING “TO HAVE AND HAVE NOT” ASARI VA UNING TARJIMASAI MISOLIDA).....147

PEDAGOGIKA


- 1. Rajabov Shaxzodbek Baxrom o‘g‘li.**
UMUMIY PEDAGOGIK TAYYORGARLIK JARAYONIDA BO‘LAJAK MUSIQA O‘QITUVCHISINING BADIY MAHORATINI OSHIRISH.....153
- 2. Davletov Mayliboy Yusupovich.**
O‘ZBEK CHOLG‘U IJROCHILIGI TARIXINI O‘RGANISH ORQALI TALABALARNING MUSIQIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH JARAYONINING SAMARADORLIK DARAJASI.....161
- 3. Abdirimova Shoxsanam Xudayberganovna.**
VERIFIKATSIYA TAMOYILINING PEDAGOGIK JARAYONDAGI MOHIYATI.....166
- 4. Allamuratova Xurliman.**
TA'LIM KONSEPSIYASINING MOHIYATI VA METODIKADAGI O‘RNI.....170
- 5. Sharipov Allabergan Kamilovich.**
JISMONIY TARBIYA VA SPORT YO'NALISHI BITIRUVCHILARINING KASBIY-PEDAGOGIK TAYYORGARLIK DARAJASINI ISH BERUVCHILAR BAHOSIGA KO'RA TAHLIL QILISH: SO'ROVNOMA ASOSIDA EMPIRIK TADQIQOT.....176
- 6. Jammатов Jasurbek Sharipovich. Komilova Olima Allabergan qizi.**
TAYYORGARLIK DARAJASINI KROSS-FIT MASHG‘ULOTLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH: DOLZARBLIK VA ISTIQBOLLAR.....183
- 7. Ким Татьяна Сергеевна.**
СТРАТЕГИИ ОБУЧЕНИЯ ИЕРОГЛИФИЧЕСКОЙ ЛЕКСИКЕ В КОРЕЙСКОМ ЯЗЫКЕ...189

PSIXOLOGIYA

- 1. Jumaniyazova Ilmira Kamiljanovna. Sobirova Xosiyat Rustambekova.**
BOSHLANG‘INCH SINFI O‘QUVCHILARNING XOTIRASINING NEYROPSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....195
- 2. Xashimova Sayyora Xolmuradovna.**
IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARDA EMOTSIONAL ZO‘RIQISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....199
- 3. Allayarov Dilshod Raximboy o‘g‘li.**
ERKIN KURASHCHILARDA MUSOBAQA OLDI EMOTSIONAL HOLATLARINING MOTIVATSION JARAYONLARGA TA’SIRI.....203

Saotboyev Raxmatjon Madamin o'g'li,
Urganch RANCH texnologiya universiteti
“Ijtimoiy fanlar” kafedrasini o'qituvchisi

XORAZM VOHASIDA IBTIDOIY SAHNAVIY UNSURLAR VA MAROSIMIY TOMOSHALAR: IJTIMOIIY-MADANIY VA TARIXIY ASOSLAR

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.20157386>

Annotatsiya:

Ushbu maqolada miloddan avvalgi IV asrdan milodiy I asrgacha bo'lgan davr mobaynida Xorazm vohasida ibtidoiy sahnaviy unsurlarning shakllanishi va marosimiy tomoshalarning ijtimoiy-madaniy hamda tarixiy asoslari keng ilmiy tahlil qilinadi. Maqolada Xorazm madaniyatiga xos bo'lgan arxaik marosimlar, diniy-mifologik tasavvurlar va ularning sahna san'atiga o'tish jarayonlari o'rganiladi. Tadqiqot manbalari sifatida arxeologik topilmalar, antropologik ma'lumotlar, qadimgi yozma manbalar hamda qiyosiy etnografik materiallardan foydalanilgan. Maqola teatr san'atining ildizlari muammosiga yangicha yondashuv taklif etib, Xorazm vohasini Markaziy Osiyodagi dastlabki teatrga oid an'analarning muhim markazlaridan biri sifatida asoslashga harakat qiladi.

Kalit so'zlar: Xorazm, ibtidoiy sahnaviy unsurlar, marosimiy tomoshalar, arxaik teatr, sinkretik san'at, mifologik ong, Avesto, Ahamoniylar davri, so'g'd madaniyati, diniy marosimlar, Markaziy Osiyo teatri.

KIRISH

Teatr san'atining kelib chiqishi masalasi dunyo ilm-fanida azaldan muhim o'rin tutib kelgan. Qadimgi yunon dramaturgyasidan tortib, Sharq tomoshabozliklarigacha bo'lgan keng qamrovli tadqiqotlar sahna san'atining ildizlari insoniyatning ibtidoiy davri bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatib beradi. Aynan shu nuqtai nazardan Xorazm vohasi – O'rta Osiyo tarixi va madaniyatining beqiyos xazinasi – alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Bu hudud mil.avv. IV asrdan mil. I asrgacha bo'lgan davr mobaynida nafaqat siyosiy va iqtisodiy, balki madaniy jihatdan ham ulkan o'zgarishlarga sahna bo'ldi. Ahamoniylar imperiyasining ta'siri, Aleksandr Makedonskiyning yurishi, Parfiya va Kushon davlatlarining shakllanishi – bularning barchasi Xorazm madaniyatida o'ziga xos iz qoldirdi va ibtidoiy sahnaviy an'analarning yangi shakllar bilan qorishishiga zamin yaratdi [1].

Ibtidoiy sahnaviy unsurlar deganda biz odatda aytib o'tiladigan teatral tomoshabozliklarning rasmiy shakllari emas, balki insonning kundalik turmushi, diniy-mifologik dunyoqarashi va ijtimoiy munosabatlar tizimi bilan uzviy bog'liq bo'lgan barcha tomoshabozlik unsurlarini tushunamiz. Bunday unsurlar orasida ov marosimlari, hosil to'ylari, o'lim va qayta tirilish afsunlari, qahramonlik dostonlarining dramatik ijrosi, shuningdek, tabiat kuchlari bilan muloqot o'rnatishga qaratilgan shamanlik amaliyotlari alohida o'rin tutadi. Ushbu unsurlarni o'rganish teatr tarixi fani uchun nafaqat qiziqarli, balki zaruriy yo'nalish hisoblanadi, chunki ular bizga zamonaviy sahna san'atining genezisi haqida chuqurroq tushuncha beradi [3].

Xorazm vohasi bu borada o'ziga xos ilmiy laboratoriya vazifasini o'taydi. Bir tomondan, bu hudud arxeologik jihatdan nisbatan yaxshi o'rganilgan bo'lib, ko'plab ashyoviy dalillar va moddiy madaniyat namunalari bizgacha yetib kelgan. Ikkinchi tomondan, Xorazm ibtidoiy davrdan to antik davrgacha uzluksiz madaniy an'analarni saqlab kelgan mintaqa bo'lib, bu yerda ko'plab qadimgi marosimlar va ibtidoiy tomoshabozlik shakllari uzoq vaqt davomida hayotiyeligini saqlagan. Uchinchi tomondan esa, bu hudud Sharq va G'arb madaniyatlari kesishgan nuqtada joylashgan bo'lib, turli sahnaviy an'analarning o'zaro ta'siri va sintezi Xorazm madaniyatini nihoyatda rang-barang va murakkab hodisaga aylantirgan. Xorazm vohasining qadimgi tarixi va madaniyatini o'rganishda S.P.Tolstovning xizmatlarini alohida qayd etish lozim. Uning rahbarligida 1937–1945 yillarda olib borilgan Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi bu hududda ilk bor tizimli ilmiy tadqiqotlar olib borishga imkon yaratdi. Tolstov o'zining asosiy asarlarida – «По следам древнехорезмийской цивилизации» (1948) va «Древний Хорезм» (1948) – Xorazm madaniyatining noyob xususiyatlarini, jumladan, diniy-marosimiy an'analarning o'ziga xos jihatlarini batafsil yoritdi. Uning tadqiqotlari keyingi avlod olimlar uchun mustahkam metodologik poydevor bo'lib xizmat qildi [4].

Sovet davri arxeologiyasida M.G.Vorobevaning, Y.A.Rapoport va E.E.Nerazikaning Xorazm madaniyatiga bag'ishlangan tadqiqotlari alohida o'rin tutadi. Rapoport o'zining «Хорезмские астадани» (1971) asarida Xorazm diniy-marosimiy madaniyatining murakkab tuzilishini ko'rsatib berdi va bu tadqiqot marosimiy tomoshalarning diniy asoslarini tushinishda muhim manba bo'lib qolmoqda. Nerazikaning ko'chmanchi va o'troq aholining o'zaro munosabatlariga bag'ishlangan asarlari esa ikki xil turmush tarzining sahnaviy an'analarga ta'sirini baholashda qimmatli ma'lumot beradi. Markaziy Osiyo teatrining qadimgi shakllarini o'rganishda M.Qodirovning va B.Nazarovning ishlari alohida ahamiyat kasb etadi. M.Qodirov o'zining «O'zbek teatri tarixi» (1995) asarida milliy sahna san'atimizning ildizlarini ibtidoiy marosimlar bilan bog'lash zarurligini ta'kidlaydi va bir qator arxeologik dalillarni teatral hodisa sifatida tahlil qiladi. B.Nazarovning tadqiqotlari esa o'zbek xalq tomoshabozligining o'ziga xos xususiyatlarini qadimgi an'analarga bilan bog'lashda yangi metodologik yondashuvlar taklif etadi.

Xalqaro miqyosda esa Richard Schechnerning «Performance Theory» (1988) va «Environmental Theater» (1973) asarlari, shuningdek, Victor Turnerning «The Ritual Process» (1969) va «From Ritual to Theatre» (1982) asarlari ushbu tadqiqot uchun muhim nazariy-metodologik zamin yaratadi. Schechner va Turnerning «sahna oldi» (performance) va «marosim» tushunchalarini o'zaro bog'lash borasidagi nazariyalari Xorazm materialini tahlil qilishda qo'l keladi. Ayniqsa, Turnerning «liminality» (chegara holati) konsepsiyasi qadimgi Xorazmdagi marosimiy tomoshalarning ijtimoiy vazifasini tushuntirishda juda samarali metodologik qurol sifatida foydalanilishi mumkin [8].

Metodologik jihatdan ushbu tadqiqot kompleks yondashuv asosiga qurilgan bo'lib, arxeologik, antropologik, adabiy-tarixiy va qiyosiy-tarixiy metodlar birgalikda qo'llanilgan. Shu bilan birga, retrospektiv etnografiya metodi – ya'ni hozirgi kungi va yaqin o'tmishdagi xalq marosimlaridan ibtidoiy davrga qarab xulosa chiqarish – tadqiqotda muhim o'rin tutadi. Bu metod, albatta, o'z ichida muayyan xatarlarni – jumladan, anaxxonizm xavfini – mujassam etadi, shuning uchun uning natijalari boshqa usullar orqali olingan ma'lumotlar bilan doimo solishtirilib tekshirilgan.

Xorazm vohasi Amudaryo (qadimgi Oks daryosi) deltasida joylashgan bo'lib, shimolda Orolbo'yi cho'llari, sharqda va g'arbda esa Qoraqum va Qizilqum cho'llari bilan o'ralgan. Bu tabiiy-geografik vaziyat vohani jahon tarixining barcha davrlarida o'ziga xos ajratilgan, shu bilan birga strategik jihatdan muhim makonga aylantirdi. Mil. avv. IV asrda Xorazm vohasi Ahamoniylar imperiyasidan mustaqilligini erishib olgan yoxud chekka siyosiy mavqega ega bo'lgan holda o'z mahalliy madaniyatini rivojlantirish imkoniga ega bo'ldi. Bu davr Xorazm shahar madaniyatining yuksalishi bilan tavsiflanadi: Ko'zaliqir, Qo'yqirilgan qal'a, Dingilja kabi yirik markazlar paydo bo'ldi va rivojlandi [2].

Iqlim va geografik sharoit xorazmliklarning dunyoqarashiga, demakki, ularning marosimiy tizimiga ham katta ta'sir ko'rsatdi. Cho'l va voha o'rtasidagi keskin qarama-qarshilik, Amudaryoning

toshqinlari va quruqlik davrlari, qishning qattiq sovuqlari va yozning jazirama issig'i – bularning barchasi tabiat kuchlarini ilohiylashtirishga va ularga murojaat qiluvchi murakkab marosimiy an'analarning shakllanishiga zamin yaratdi. Suvni hayot manbai sifatida ulug'lash, yerni hosildor qiluvchi kuch sifatida qabul qilish, quyosh va shamolning iqlimga ta'sirini tartibga soluvchi rituellarga e'tiqod – bularning barchasi Xorazm marosimiy madaniyatining o'zagi bo'lib, vaqt o'tishi bilan nafaqat diniy, balki estetik-teatral shakllarga ham ega bo'ldi.

Ijtimoiy tuzilma nuqtai nazaridan qaralganda, mil. avv. IV – mil. I asrlardagi Xorazm jamiyati murakkab ierarxik tizimni ifodalardi. Zodagonlar tabaqasi, ruhoniylar sinfi, hunarmandlar va dehqonlar, shuningdek, ko'chmanchi qabilalar bilan murakkab munosabatlarda bo'lgan yarim ko'chmanchi aholidan iborat bu jamiyat marosimiy tomoshalarni nafaqat diniy, balki siyosiy va ijtimoiy funksiyalarni bajarish uchun ham faol ishlatdi. Saroy tantanalari, harbiy g'alabalar munosabati bilan o'tkazilgan tomoshalar, fasliy bayramlar va din bilan bog'liq katta yig'inlar – bularning barchasi marosimiy-sahnaviy an'analarning taraqqiyotiga samarali hissa qo'shdi. Xorazm vohasida diniy hayot asosan zardushtiylik bilan bog'liq edi, garchi bu davr uchun zardushtiylikning to'liq shakllanmagan, mahalliy diniy tasavvurlar bilan aralashgan variantlari ko'proq xarakterli bo'lsa-da.

«Avesto» matnlarida tasvirlangan Xvarenah (ilohiy nur) va Asha (tartib, adolat) kabi tushunchalar Xorazm marosimiy madaniyatida markaziy o'rin egallagan bo'lib, bu tushunchalarni ifodalovchi murakkab marosimiy tomoshalar vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Olov, suv va yerga sig'inish – zardushtiy dinining asosiy elementlari – Xorazm marosimiy san'atida doimiy estetik va dramatik motiflar sifatida qaytarib ishlatildi [7]. Xorazm vohasidan topilgan arxeologik materiallar ibtidoiy sahnaviy an'analar mavjudligini ko'rsatuvchi muhim dalillar sifatida qaralishi mumkin. Qo'yqirilgan qal'a (mil. avv. IV – III asrlar) qazilmalari bu muammo nuqtai nazaridan ayniqsa qiziqarlidir. Mazkur yodgorlikdan topilgan sopol idishlar, terracotta haykalchalar va muhr-naqshlar ma'lum bir rituellarda ishtirok etuvchi shaxslarni tasvirlaydi. Xususan, niqobli va kostyumli shaxslarning tasvirlari diqqatni jalb etadi: ular o'ziga xos marosimiy kiyim-kechakda, ba'zan hayvon qiyofasida tasvirlangan bo'lib, bu aniq bir sahnaviy yoki marosimiy kontekstni ko'rsatadi [5].

S.P.Tolstov va uning shogirdlari tomonidan kashf etilgan Qo'yqirilgan qal'a qazilmalarida topilgan musiqiy cholg'u asboblari qoldiqlari ham e'tiborga molik. Doira va nog'ora turidagi zarbli cholg'ular, shuningdek, torli va naysimon cholg'ularin izlari marosimiy musiqaning mavjudligidan dalolat beradi. Antik dunyo va Yaqin Sharq madaniyatlaridan ma'lumki, musiqa va raqsning marosimiy kontekstda birlashuvi dastlabki teatral hodisalar vujudga kelishining asosiy sharti hisoblanadi. Xorazm materiallarida ham bunday sintezning ilk belgilari ko'rinadi. Dingilja yodgorligidan (mil. avv. III – II asrlar) topilgan terracotta haykalchalar qatori Xorazm ibtidoiy sahnaviy an'analari haqida muhim ma'lumot beradi. Bu haykalchalarda kuyuvchi qizlar va yigitlarning raqsga tushayotgan holati, turli marosimiy pozalar, shuningdek, bir-biriga yuzma-yuz turgan va muayyan dramatik holatni aks ettiruvchi shaxslar tasvirlangan. Bunday tasvirlarni sahnaviy jarayon, ya'ni muayyan hikoya yoki mif asosida yaratilgan dramatik sahnaning ifodasi sifatida qabul qilish mumkin. Haykalchalar batafsil o'rganilganda ularda aniq bir xronologik ketma-ketlik va harakat dinamikasi ko'zga tashlanadi [6].

Tuproqqal'a (mil. avv. I asr – mil. III asr) saroy xonalarida topilgan devoriy rasmlar ham ibtidoiy sahnaviy an'analar to'g'risida qimmatli ma'lumot beradi. Garchi ushbu yodgorlik aniqlangan sana bo'yicha tadqiqot davrimizning so'nggi bosqichiga tegishli bo'lsa-da, uning devorlari zardushtiy marosimlarni, saroy tantanalarini va boshqa tomoshabozlik hodisalarini aks ettiruvchi murakkab kompozitsiyalarni o'z ichiga oladi. Bu tasvirlar oldingi davr ibtidoiy an'analarning rivojlangan shakllarini ko'rsatadi va retrospektiv tahlil uchun muhim baza bo'lib xizmat qiladi. Tuproqqal'a rasmlari Xorazm marosimiy san'atining uzluksiz an'anasini ko'rsatib, ibtidoiy bosqichdan taraqqiy etgan, estetik jihatdan yetuk shaklga o'tishning izchil manzirasini yaratadi.

Ayniqsa, Xorazm vohasi yodgorliklaridan topilgan niqoblar va maska elementlari ibtidoiy teatral madaniyatning muhim dalili hisoblanadi. Niqob – barcha madaniyatlarda ibtidoiy sahnaviy tomoshabozlikning asosiy atributlaridan biri – teatr va marosimning o'zaro bog'liqligini ifodalovchi universal simvol. Xorazm arxeologik materiallarida topilgan niqob elementlari va niqobga o'xshash

buyumlar diniy-marosimiy kontekstda ishlatilganidan dalolat beradi. Bu topilmalar Osiyo, Afrika va Amerikadagi boshqa madaniyatlardagi ibtidoiy teatr an'analaridan tanish bo'lgan niqob fenomeni Xorazmda ham mavjud bo'lganini tasdiqlaydi. Xorazm vohasida ibtidoiy sahnaviy unsurlarning shakllanishi, avvalo, mintaqaning diniy-mifologik dunyoqarashi bilan chambarchas bog'liq. Zardushtiylikning «Avesto»da mustahkamlangan konsepsiyalaridan tashqari, Xorazm mahalliy madaniyatida animistik va totemistik tasavvurlar ham kuchli o'rin tutgan. Aynan bu tasavvurlar marosimiy dramaturgiyaning asosini tashkil etgan. Masalan, «qahramonning safar» arxetipi – ya'ni qahramonning g'ayritabiiy olam bilan muloqoti, sinov va qaytib kelish motivi – «Avesto»ning Yashti boblari va boshqa manbalar orqali Xorazm mifologiyasida yaxshi tasdiqlanadi hamda marosimiy tomoshabozlikda dramatik material sifatida keng foydalaniladi.

Zardushtiy marosimiy tizimining asosiy elementlaridan biri bo'lgan Yasna – diniy matnlar va madhiyalarni birgalikda o'qish marosimi – ibtidoiy teatral tomoshabozlikning muhim shakli sifatida ko'rilishi mumkin. Yasna paytida ruhoniylar matn o'qish bilan birga aniq belgilangan harakatlar bajaradi, muayyan pozalarda turadi va bir-biri bilan muloqotga kiradi. Bu holat dramaturgiyaning ibtidoiy shakli bo'lib, marosim ishtirokchilarini aktyor va tomoshabin rollariga ajratgan. Xorazm Yasnasi mahalliy an'analar bilan boyib, mumkin bo'lgan tomoshabozlik elementlarini o'z ichiga qamrab olgan deb taxmin qilishga asoslar bor.

«Avesto»ning «Yashti» bo'limida eslatilgan Mitrani – quyosh va ittifoq xudosi – ulug'lash marosimlari Xorazm vohasida juda mashhur bo'lgan. Mitra kultining marosimiy tizimi, jumladan, uning asosiy mifi – Mitra ho'kizni o'ldirishi – dramatik va sahnaviy jihatdan nihoyatda boy hikoyani ifodalaydi. Bu mifdagi ziddiyat, kurash, g'alaba va yangilanish motivlari keyinchalik antik teatrdagi keng tarqalgan dramatik tuzilmani eslatadi. Xorazm vohasida Mitra kultining o'ziga xos mahalliy varianti mavjud bo'lib, uning marosimiy ifodalari Sharqiy Xorazm yodgorliklarida topilgan tasvir va bezaklar orqali qisman tiklanishi mumkin.

Xorazm madaniyatida ulug'langan va keng tarqalgan yana bir muhim marosimiy an'ana – bu «o'lim va qayta tirilish» tsiklini ifodalovchi mavsumiy bayramlar. Bahorda o'tkaziladigan Navro'z bayramining arxaik shakllarida dramaturgiyaning ibtidoiy elementlari aniq ko'rinadi: qishning yoki yomonlikning ramziy o'limi va bahorning yoki ezgulikning g'alabasi ko'pincha dramatik ko'rinish shaklida ifodalangan. Bu an'analarning dastlabki belgilari mil. avv. IV – III asrlarga borib taqalishi mumkin bo'lib, keyinchalik ular murakkab sahnaviy shakllarga aylandi. Qadimgi Xorazm bayramlarida uchraydigan «qish va bahor kurashi» sahnasirikiga o'xshash dramatik epizodlar turkiy va eroniy xalqlarning ko'plab keyingi an'alarida ham saqlanib qolgan. [9].

Ov marosimlari – insoniyatning deyarli barcha madaniyatlarida ibtidoiy sahnaviy an'analarning eng qadimgi manbalaridan biri – Xorazm vohasi uchun ham muhim rol o'ynagan. Mil. avv. IV – I asrlarda Xorazm aholisining bir qismi, ayniqsa, voha atrofidagi cho'l va yaylovlarda yashagan qabilalar uchun ov muhim hayot manbayi bo'lib qoldi. Bu qabilalar ov oldidan o'tkariladigan marosimlarda ovni muvaffaqiyatli yakunlash uchun ruhlardan va totem hayvondan ruxsat so'ragan, ov jarayonini dramatik shaklda «o'ynab ko'rsatgan». Bunday «oldindan o'ynash» psixologik tayyorgarlik va kollektiv koordinatsiyani ta'minlash uchun ham, diniy-mifologik vazifani bajarish uchun ham zarur hisoblangan.

Xorazm materiallari orasida totemistik tasavvurlar bilan bog'liq sahnaviy an'analar izlari ko'zga tashlanadi. Xususan, arxeologik qazishmalar jarayonida topilgan ko'plab hayvon tasvirlari – to'ng'iz, it, ilon, arqon, burgut – mahalliy qabilalarning totem hayvonlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bu tasvirlar ko'pincha muayyan harakatni – hujumni, qochishni, o'yinni – aks ettiradi va dramaturgiyaning ibtidoiy shakllari bilan bog'liq bo'lgan marosimiy kontekstda paydo bo'lgan deb taxmin qilish mumkin. Ba'zi tasvirlarda odam va hayvonning o'zaro ta'siri, hatto ularning bir-biriga aylanishi motivi kuzatiladi, bu esa shamanistik transformatsiya marosimlarini eslatadi.

Hayvonlarga taqlid qilish – zoomorfiklik (animalizm) – barcha ibtidoiy sahna an'alarida keng tarqalgan hodisa bo'lib, Xorazm kontekstida ham muhim o'rin tutgan. Maxsus hayvon niqoblarini kiyib, ularning harakatlarini, ovozlari va xulqini taqlid qilish nafaqat marosimiy, balki o'rgatuvchi va ijtimoiy funksiyalarni ham bajargan. Bolalarga ov ko'nikmalarini o'rgatishda, jamoaning ovchi xudolari bilan muloqotida yoki totem hayvonning kuchini o'z ichiga qabul qilishga

intilishda bunday taqlid muhim rol o'ynagan. Keyinchalik bu an'ana teatral niqob va kostyum san'atiga aylandi va sahna madaniyatining ayrim qismiga kirdi.

Arxeologik ma'lumotlar shundan dalolat beradiki, Xorazm vohasida zardushtiy dinining keng tarqalishi davrida ham qadimgi hayvon kultlari o'z ta'sirini yo'qotmadi. Aksincha, zardushtiy panteonidagi ayrim hayvon timsollariga – masalan, Ahura Mazda bilan bog'liq burgutga, Mitra bilan bog'liq ho'kizga – bo'lgan e'tiqod mahalliy totemistik an'analar bilan birikib, ular asosida yanada murakkab marosimiy tomoshalar vujudga keldi.

Dehqonchilik bilan bog'liq fasliy marosimlar Xorazm vohasidagi ibtidoiy sahnaviy an'analarning muhim qatlamini tashkil etadi. Amudaryo vohasida dehqonchilik mil. avv. V – IV asrlarda yanada kuchaydi va bu bilan birga suv va unumdorlikka bag'ishlangan keng qamrovli marosimiy tizim shakllandi. Bahorgi ekish va kuzgi hosil yig'ish marosimlari, suvning muqaddas daryolardan kelib tushishi bilan bog'liq tantanalar, yerning hosildorligini ta'minlovchi ma'budalar ulug'lanishi – bularning barchasi murakkab dramatik tuzilmaga ega an'analarni ifodalaydi. Bu marosimlarda tabiat hodisalari insonlashtiriladi, ma'budalar bilan muloqot o'rnatiladi va fasliy sikl dramatik voqea sifatida tasvir etiladi.

Xorazmda o'tkaziladigan bahorgi bayramlar – keyinchalik Navro'z nomi bilan yaxshi ma'lum bo'lgan bayramlarning arxaiik shakllari – dramatik elementlarga juda boy bo'lgan. Bu bayramlarda ikki guruh o'rtasidagi «kurash» – qish va bahor, yomonlik va ezgulik, tartibsizlik va tartib o'rtasidagi kurash – ramziy shaklda dramatik tarzda ijro etilgan. Kurashda «qishni» tasvirlovchi shaxs albatta «bahor»ni tasvirlovchi shaxsga yengilib, quvib chiqarilgan yoki ramziy ravishda «o'ldirilgan». Bu dramatik jarayon o'z ichida aniq bir dramaturgik tuzilmani – ekspozitsiya, kulminatsiya, denouement – ifodalaydi va uni ibtidoiy teatral hodisa deb baholash to'liq asoslidir.

Suv va havzalar muqaddasligi bilan bog'liq marosimlar Xorazm vohasida alohida o'rin tutgan. Amudaryo suvining toshqinlari va izidan keluvchi unumdorlik Xorazm dehqoni uchun ilohiy mo'jiza sifatida qabul qilingan bo'lib, bunga bag'ishlangan maxsus marosimlar har yili o'tkazilgan. Daryo xudolariga hurmat va minnatdorchilik bildirish, suvning bereket keltiruvchi kuchini drama yoki raqsda ifodalash, suv ma'budalariga qurbonlik qilish va ularga murojaat etish kabi amallar aniq bir dramatik-sahnaviy shakl kasb etgan. Bu marosimlar ishtirokchilarini yaxshi belgilangan rollarga – ruhoniy, ma'bud vakili, qurbonlik keltirgich, jamoat nomidan gaplashuvchi – bo'lib, ularning har biri o'ziga xos kostyum, harakat va so'z repertuariga ega bo'lgan. Xususan, Xorazm arxeologik yodgorliklarida topilgan cholg'u asboblari tasvirlari va musiqachilar haykalchalari, raqs shakllari va pozalarini aks ettiruvchi terracottalar bu uchlikning moddiy dalillari sifatida ko'rilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Г. Н. Бояджиева — «От Софокла до Брехта: сорок веков театра». 1969, с. 5–25.
2. С. П. Толстов — Древний Хорезм. 1948, с. 120–145.
3. С. П. Толстов — По следам древнехорезмийской цивилизации. 1948, с. 85–110.
3. Victor Turner — From Ritual to Theatre. 1982, p. 20–45.
4. С. П. Толстов — Древний Хорезм. с. 210–230.
5. Richard Schechner — Environmental Theater. 1973, p. 40–60.
6. С. П. Толстов — По следам древнехорезмийской цивилизации. с. 150–180.
7. Avesto, Yasna: boblar 1–72 (28–34).
8. Victor Turner — The Ritual Process. p. 94–130.
9. М. Qodirov — O'zbek teatri tarixi . 1995, b. 15–30, B. Nazarov — xalq tomoshabozligi tadqiqotlari, b. 40–65.

«MAMUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE» JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

Maqolani tayorlashda qo'yiladigan talablar:

1. Maqola o'zbek, ingliz va rus tillarida minimal 6 sahifadan iborat bo'lib, Microsoft Word dasturida Times New Roman shriftida 12 kegl, 1 satr oralig'ida, sahifalar barcha tomondan 2 sm qoldirilgan holda bo'lishi shart.
2. Satr boshi - 1,25 sm bo'lib, satrlarni eniga to'g'irlash, so'zlarni boshqa qatorga ko'chirish avtomatik tarzda bo'lishi lozim.
3. Birinchi qator o'ng tomondan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ikkinchi qatorda muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni, e-mail va telefon raqami, uchinchi qatorda sahifaning o'rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi yoziladi. Ushbu ma'lumotlar o'zbek, ingliz va rus tillarda berilishi lozim.
4. Keyingi qatordan o'zbek, ingliz va rus tillarida 60 so'zdan iborat annotatsiya beriladi.
5. Keyingi qatordan 7-10 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida kalit so'zlar beriladi.
6. Keyingi qatordan asosiy matn boshlanadi va maqola 4 qismdan iborat bo'ladi: Mavzuning dolzarbligi. Metodlar va o'rganilganlik darajasi. Tadqiqot natijalari. Xulosa.
7. Maqolalar ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, ulardagi fakt va fikrlar asoslangan hamda mustaqil ma'no kasb etishi lozim, plagiat holati taqiqlanadi. Muallif foydalanilgan adabiyotlarni aniq ko'rsatishi, olingan iqtiboslarning aniq manbalarini keltirishi lozim.
8. Web of science hamda Scopus tizimidagi jurnallardan iqtiboslar olish maqsadga muvofiqdir.
9. Iqtiboslar matn ichida [1, 25] beriladi. Adabiyotlarning to'liq ro'yxati asosiy matndan so'ng alifbo tartibida ko'rsatilishi lozim.

Требования к оформлению научной статьи:

1. Статьи должны содержать 6 страниц, в формате Times New Roman на Microsoft Word, 12 кегль, 1 см, со всех сторон 2 см.
2. Начала абзаца - 1,25 см, формировать строки по ширине, перенос слов в другой ряд должен быть в автоматическом порядке.
3. В первой строке от правой стороны Ф.И.О. автора, во второй строке место работы, должность, ученая степень и ученое звание, e-mail и номер телефона, в третьей строке по центру страницы прописными буквами жирным шрифтом название статьи. Эта информация должна быть предоставлена на узбекском, английском и русском языках.
4. В следующей строке аннотация из 60 слов на трех языках: узбекский, английский и русский.
5. Со следующей строки ключевые слова 7-10.
6. Далее начинается основной текст. новой текст начинается со следующей строки, и статья состоит из 4 частей: актуальность темы, методы и уровень исследования, результаты исследования, заключение.
7. Статьи должны иметь научное значение, факты и идеи должны быть обоснованными и избежать плагиатства. Автор должен точно указать использованную литературу и ссылку на источники, при помощи которых он выразил свое мнение.
8. Сноски или ссылки должен быть взяты из Web of science, а также системы журналов Scopus.
9. Цитирование приводится в тексте [1, 25] Полный список литературы должен быть указан после основного текста, а алфавитном порядке.

Requirements of the articles submitted:

1. Articles should be at least 6 pages, in Times New Roman, 12 pt., 1 inter.
2. The line head should be 1,25 cm, line spacing, and the words should be automatically moved.
3. The author's full name should be on the first line from the right; the author's place of work, position, academic degree, and academic rank, email address, and phone number should be on the second line; the article title should be centered in bold, capital letters, on the third line. This information should be provided in Uzbek, English, and Russian.
4. An annotation of 60 words in the next line in three languages.
5. Key words from the next row in three languages 7-10.
6. The next line begins with the main text. The main text begins on the next line, and the article consists of four parts: the relevance of the topic, the methods and level of research, the results, and the conclusion.
7. Articles must be of scientific importance and facts and opinions in the article should be well-grounded and have an independent meaning, and they must be free of plagiarism. The author must clearly demonstrate the literature used in his or her opinion, and provide the exact sources of the extracts.
8. Quotes should be from "Web of science" and "Scopus" journals.
9. A complete list of publications should be followed in alphabetical order after the main text. Seals and references should be in the main text [1, 25].